



UDK:82.091:504

*Xulkar ISHQOBILOVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:ishkobilovaxulkar@icloud.com*

*O'zDJTU professori v.b., DSc M.Umarova taqrizi asosida*

#### THE REPRESENTATION OF ECOLOGICAL AND ECOLOGICAL AND SOCIAL CRISES IN FICTION: ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMANS AND THE NATURAL ENVIRONMENT

Annotation

This article explores the representation of ecological and social crises in fiction through the perspective of human–nature relationships. It examines how environmental degradation caused by human activity, along with the disruption of social and moral balance, is conveyed through literary images, symbolic elements, and narrative structures. Particular attention is paid to the close connection between ecological and social crises, where the destruction of the natural world reflects the spiritual and ethical decline of society. Using examples from both world and Uzbek literature, the study analyzes various artistic models of interaction between humans and the natural environment, including domination, harmony, alienation, and responsibility.

**Key words:** Fiction, Ecological and social crisis, Human–nature relationship, Environmental awareness, Eco-literature, Ecocriticism, Moral and ethical crisis, natural environment, symbolic and philosophical interpretation, literary imagery, social responsibility, contemporary literature.

#### BADIIY ADABIYOTDA EKOLOGIK VA IJTIMOYIY INQIROZLARNING AKS ETIRILISHI: INSON VA TABIIY MUHIT O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy adabiyotda ekologik va ijtimoiy inqirozlarning qanday aks ettirilishi masalasi atroflicha tahlil qilinadi. Inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning izdan chiqishi badiiy asarlarda qanday obrazlar, ramziy tasvirlar va syujet chiziq-lari orqali ifodalanganligi o'rganiladi. Tadqiqot davomida ekologik inqirozning ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liqligi ochib berilib, insonning tabiatga munosabati uning ma'naviy dunyosi va axloqiy qarashlarini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Jahon va o'zbek adabiyotidagi ekologik mavzudagi asarlar misolida inson va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning turli badiiy modellari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik va ijtimoiy inqiroz, inson va tabiat munosabatlari, ekologik ong, eko-adabiyot, eko-tanqid, ma'naviy va axloqiy inqiroz, tabiiy muhit, ramziy va falsafiy talqin, badiiy obraz, ijtimoiy mas'uliyat, zamonaviy adabiyot.

#### ОТРАЖЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ КРИЗИСОВ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ

Аннотация

В статье рассматривается проблема художественного осмысления экологических и социальных кризисов в литературе через призму взаимоотношений человека и природы. Анализируется, каким образом последствия человеческой деятельности, нарушение природного равновесия и отчуждение человека от окружающей среды находят отражение в художественных образах, символах и сюжетных структурах литературных произведений. Особое внимание уделяется взаимосвязи экологического и социального кризисов, при которой разрушение природы предстает отражением духовного и нравственного состояния общества. На примере произведений мировой и узбекской литературы раскрываются различные художественные модели взаимодействия человека и природной среды, включая мотивы утраты гармонии, ответственности и поиска утраченных ценностей.

**Ключевые слова:** Художественная литература, экологический и социальный кризис, взаимоотношения человека и природы, экологическое сознание, эko-литература, эko-критика, духовно-нравственный кризис, природная среда, символическая и философская интерпретация, художественный образ, социальная ответственность, современная литература.

**Kirish.** XX–XXI asrlar badiiy adabiyoti insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq murakkab va dolzarb muammolarni badiiy jihatdan anglashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, ekologik va ijtimoiy inqirozlar masalasi zamonaviy adabiy jarayonning markaziy mavzularidan biriga aylanib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, shuningdek, iste'molchilik tafakkurining ustuvorlik kasb etishi natijasida inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat sezilarli darajada buzildi. Bu holat esa nafaqat ekologik muammolarni, balki jamiyat hayotida chuqur ijtimoiy inqirozlarni ham yuzaga keltirdi. Badiiy

adabiyot mazkur muammolarni oddiygina tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u ekologik va ijtimoiy inqirozlarning tub sabablarini ochib berishga, inson ruhiyati, dunyoqarashi hamda jamiyat ongida kechayotgan o'zgarishlarni chuqur tahlil qilishga intiladi. Ko'plab badiiy asarlarda ekologik muammolar insoniy qadriyatlarining yemirilishi, axloqiy tanazzul va ijtimoiy befarqlik bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Mazkur maqolada ekologik va ijtimoiy inqirozlarning badiiy adabiyotda aks ettirilish usullari, inson va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning ramziy hamda falsafiy talqini ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ekologik muammolarning badiiy adabiyotdagi talqini jahon adabiyotshunosligida “eko-adabiyot” va “eko-tanqid” (ecocriticism) tushunchalari doirasida o'rganiladi. Ushbu yo'nalish tabiat va inson munosabatlarini adabiy matn orqali tahlil qilishni, ekologik ong shakllanishini tadqiq etishni maqsad qiladi. G'arb adabiyotida Genri Devid Toro, Reychel Karson, Richard Pauers kabi ijodkorlarning asarlari ekologik tafakkur rivojida muhim o'rin egallaydi. Xususan, Richard Pauersning “The Overstory” romani ekologik inqirozni markazga qo'yan zamonaviy badiiy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda daraxtlar oddiy tabiiy unsur sifatida emas, balki insoniyat tarixining faol va teng huquqli ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Muallif tabiatni fon darajasidan chiqarib, uni tirik, his etuvchi va o'z taqdiriga ega mavjudot sifatida talqin qiladi.

O'zbek adabiyotida esa ekologik muammolar ko'pincha ijtimoiy va axloqiy inqirozlar bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Erkin A'zamning “Tanxo qayiq”, Temur Po'latovning “G'oyibning ikkinchi safari” kabi asarlarida tabiatga nisbatan befarqlik insonning ichki yolg'izligi, ruhiy iztirobi va jamiyatdagi begonalashuv jarayonlari bilan chambarchas aloqada ko'rsatiladi. Umuman olganda, ekologik mavzu badiiy adabiyotda ramziy, falsafiy va mifopoetik qatlamlar orqali ifodalaniib, insonning tabiat oldidagi mas'uliyati masalasini dolzarb muammo sifatida ilgari suradi.

Ekologik va ijtimoiy inqiroz tushunchasining badiiy talqini: Badiiy adabiyotda ekologik inqiroz ko'pincha global miqyosdagi falokat sifatida emas, balki ma'lum bir makon — qishloq, shahar, daryo yoki o'rmon timsolida tasvirlanadi. Aynan shu cheklangan makon orqali muallif umumiy va keng ko'lamlari muammolarni badiiy umumlashtirishga erishadi. Kichik makonda yuz berayotgan ekologik buzilishlar butun insoniyat taqdiriga daxldor hodisa sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy inqiroz esa, aksariyat hollarda, ekologik muhitning buzilishi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tabiatning vayron bo'lishi jamiyat axloqiy qadriyatlarining yemirilishi bilan parallel tarzda tasvirlanadi. Inson tabiatni cheksiz ekspluatatsiya qilar ekan, asta-sekin o'zining ma'naviy ildizlaridan, ichki uyg'unligidan ham uzoqlasha boshlaydi. Ko'plab badiiy asarlarda ekologik muammo insonning tarixiy xotiradan uzilishi, o'z ildizlarini unutishi ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon ijtimoiy beqarorlik, ruhiy tushkunlik va jamiyatdagi begonalashuv holatlarining kuchayishiga olib keladi.

Ekologik va ijtimoiy inqirozning badiiy adabiyotda tasviri

#### 1. Ekologik muammolar va ingliz adabiyoti

Badiiy adabiyot ekologik muammolarni nafaqat tashqi voqeelik sifatida, balki insonning ichki ruhiyati bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida ko'rsatadi. Masalan, Richard Powersning “The Overstory” (2018) romanida daraxtlar oddiy tabiiy ob'ektlar sifatida emas, balki insoniyat tarixi va qadriyatlariga bevosita ta'sir qiluvchi tirik mavjudotlar sifatida tasvirlangan. Powers asarida inson tabiatni ekspluatatsiya qilishga intilgan sari, u ruhiy va axloqiy muvozanatini yo'qotadi. Shu tariqa, ekologik inqiroz insoniyatning axloqiy tanazzuli bilan uzviy bog'liqligi badiiy obrazlar orqali ochib beriladi.

Barbara Kingsolverning “Flight Behavior” (2012) asarida ekologik muammo iqlim o'zgarishi fonida yoritiladi. Monarch kapalaklarining kutilmagan migratsiyasi tabiatdagi muvozanatning buzilishini ramziy tarzda ifodalaydi. Asarda insonlarning befarqligi va ekologik mas'uliyatni anglamasligi ekologik muammolarni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, muallif o'quvchini ekologik

ongga undaydi va tabiat bilan munosabatini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi.

Rachel Carsonning “Silent Spring” (1962) asari esa ekologik muammolarni ilmiy va badiiy jihatdan yoritadi. Carson inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan kimyoviy ifloslanishlarni ochib beradi va tabiatni asrashni insoniyatning axloqiy mas'uliyati sifatida ta'kidlaydi. Ushbu asar ekologik badiiy adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

#### 2. O'zbek adabiyotida ekologik muammolar

O'zbek adabiyotida ekologik muammolar ko'pincha insonning ruhiy va ijtimoiy holati bilan bog'liq holda, ramziy va falsafiy shaklda yoritiladi. Masalan, Erkin A'zamning “Tanxo qayiq” (1996) asarida suv va tabiat obrazlari qahramonning ichki yolg'izligi va jamiyatdan begonalashuvi bilan uyg'unlashgan. Bu yerda ekologik muammo insonning ma'naviy inqirozi bilan bog'liq. Tabiatning vayron bo'lishi qahramonning ichki iztirobi va ruhiy kechinmalarini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Temur Po'latovning “G'oyibning ikkinchi safari” (2001) romanida inson va tabiat munosabatlari tarixiy xotira va ma'naviy ildizlar bilan bog'liq holda ochib beriladi. Insonning tabiatdan uzoqlashuvi uning o'zligini va ichki uyg'unligini yo'qotishi sifatida talqin qilinadi. Tabiat esa bu asarda insonni o'z mohiyatiga qaytishga chorlovchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Rauf Parfi she'riyatida tabiat obrazlari inson qalbining holatini aks ettiruvchi ma'naviy makon sifatida ishlatiladi. Shoir ijodida tabiatning jarohatlanishi jamiyat va inson ruhiyatidagi iztirob bilan uyg'un tasvirlanadi. Shu orqali ekologik va ijtimoiy muammolarni insoniy va ma'naviy kontekstda anglash mumkin bo'ladi.

Badiiy adabiyotda ekologik va ijtimoiy inqiroz insoniyatning axloqiy tanlovi va tabiatga munosabatiga bog'liq tarzda tasvirlanadi. Ingliz adabiyotida ekologik muammolar ko'proq global va ilmiy kontekstda yoritilsa, o'zbek adabiyotida u ramziy, falsafiy va psixologik tafakkur orqali ochiladi. Har ikkala yondashuv o'quvchida ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning tabiat bilan uyg'un yashashi uning ruhiy va ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, badiiy matnlari ekologik muammolarni nafaqat tashqi voqeelik sifatida, balki inson ruhiyati va jamiyatning axloqiy holati bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Shu bois, ular ekologik va ijtimoiy masalalarni anglashda kuchli ma'naviy va estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Inson va tabiiy muhit munosabatlarining badiiy modellari: Badiiy adabiyotda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar turli badiiy modellarda ifodalaniadi. Ularning eng asosiy lari quyidagilardan iborat:

#### 1. Inson — hukmron kuch sifatida

Menimcha, ushbu modelda inson tabiatni bo'ysundirilishi lozim bo'lgan resurs sifatida qabul qiladi. Tabiatga nisbatan utilitar munosabat ustuvor bo'lib, natijada ekologik muvozanat buziladi va turli ko'lamdagi ekologik falokatlar yuzaga keladi. Bunday talqin ko'pincha tanqidiy ruhda berilib, insonning haddan tashqari manmanligi va mas'uliyatsizligi fosh etiladi. Bu talqinda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Tabiat inson ruhiyati va ichki kechinmalarining aks-sadosi sifatida talqin qilinib, qahramonning ma'naviy holati bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Inson tabiat bilan uyg'un yashagan sari, uning ruhiy barqarorligi va ichki muvozanati ham mustahkamlanadi. Bunday asarlarda tabiat insonning sukunat topadigan maskani, ruhiy poklanish manbai sifatida namoyon bo'ladi.

#### 2. Tabiat — jazolovchi kuch

Ayrim badiiy asarlarda esa tabiat insonning beparvoligi, ochko'zligi va mas'uliyatsiz munosabatiga javoban jazolovchi kuchga aylanadi. Bu talqinda ekologik falokatlar tasodifiy hodisa emas, balki inson faoliyatining mantiqiy oqibati sifatida beriladi. Tabiiy ofatlar, qurib borayotgan yerlar va yo'qolib ketayotgan hayot manzaralari insoniyat uchun ogohlantiruvchi belgilar vazifasini bajaradi. Mualliflar bu orqali tabiat bilan zo'ravon munosabat oxir-oqibat insonning o'ziga qarshi yuzlanishini badiiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur modellarning barchasi ekologik va ijtimoiy inqirozlarning turli qirralarini ochib berib, ularning badiiy talqinini yanada boyitadi.

**Tahlil va natijalar.** Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko'ra, ekologik inqiroz masalasi badiiy adabiyotda faqatgina ekologiya doirasi bilan cheklanib qolmaydi. U jamiyatning ma'naviy holati, insonning axloqiy tanlovi hamda kelajak oldidagi mas'uliyatini ochib beruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik muammolar orqali yozuvchilar insoniyat tomonidan barpo etilgan, ammo asta-sekin o'zini yemirayotgan tizimni fosh etadilar. Inson tabiatni yo'q qilargacha, aslida o'zining kelajagini ham xavf ostiga qo'yayotganini badiiy obrazlar orqali anglatadi. Shuningdek, ekologik mavzuning individual taqdirlar orqali yoritilishi o'quvchiga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi. Global muammo alohida inson hayoti bilan bog'langan holda tasvirlanar ekan, ekologik inqiroz yanada real va ta'sirchan ko'rinish kasb etadi.

**Qiyosiy tahlil:** Har bir yozuvchi mazkur muammoga o'z estetik qarashlari, madaniy tajribasi va dunyoqarashidan kelib chiqib murojaat qiladi. Shu jihatdan Richard Powers, Barbara Kingsolver, Erkin A'zam va Temur Po'latov asarlari inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning turli badiiy talqinlarini ochib berishi bilan e'tiborga loyiqdir.

Richard Powersning "The Overstory" romanida ekologik inqiroz global miqyosdagi muammo sifatida tasvirlanadi. Asarda daraxtlar oddiy manzara unsuri emas, balki insoniyat tarixiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tirik mavjudotlar darajasiga ko'tariladi. Muallif insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishini keskin tanqid qiladi va ekologik falokatni jamiyatdagi axloqiy inqiroz bilan chambarchas bog'laydi. Tabiat bu yerda jim turgan jabrlanuvchi emas, balki insoniyatni ogohlantirib turuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Barbara Kingsolverning "Flight Behavior" romanida esa ekologik muammo iqlim o'zgarishi fonida, oddiy inson taqdiri orqali yoritiladi. Monarch kapalaklarining kutilmagan migratsiyasi ramziy obraz sifatida berilib, insoniyatning tabiatdagi o'zgarishlarga nisbatan befarqligi ochib beriladi. Kingsolver ekologik inqirozni ilmiy dalillar va insoniy his-tuyg'ular uyg'unligida tasvirlab, jamiyat ongining sustligi ekologik muammolarni yanada chuqurlashtirayotganini ko'rsatadi.

Erkin A'zamning "Tanxo qayiq" asarida ekologik inqiroz bevosita emas, balki ramziy va psixologik yo'sinda talqin qilinadi. Suv va tabiat obrazlari qahramonning ichki yolg'izligi, jamiyatdan begonalashuvi va ruhiy iztiroblari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Bu asarda tabiat inson ruhiyatining aks-sadosi bo'lib, ekologik muammo ma'naviy tanazzulning badiiy ifodasiga aylanadi.

Temur Po'latovning "G'oyibning ikkinchi safari" asarida esa inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar falsafiy va ramziy talqinda ochib beriladi. Insonning tabiatdan uzoqlashuvi uning tarixiy xotira va ma'naviy ildizlardan uzilishi bilan bog'lanadi. Tabiat bu asarda insonni o'z mohiyatiga qaytishga chorlovchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning nazarimizda, Richard Powers va Barbara Kingsolver asarlarida ekologik inqiroz ko'proq global, ilmiy va ochiq muammo sifatida yoritilsa, Erkin A'zam va Temur Po'latov ijodida u ichki kechinmalar, ramziy obrazlar va falsafiy mushohada orqali ifodalanadi. G'arb adabiyotida ekologik masala keskin va bevosita ko'tarilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida u inson ruhiyati va ma'naviy holati bilan uyg'un holda talqin qilinadi.

**Xulosa va takliflar.** Badiiy adabiyot ekologik va ijtimoiy inqirozlarni inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar prizmasida yoritib, o'quvchini chuqur mushohada qilishga undaydi. Tabiatga bo'lgan munosabat aslida insonning o'ziga bo'lgan munosabatidir. Adabiyot ushbu haqiqatni badiiy obrazlar, ramziy tasvirlar va falsafiy umumlashmalar orqali teran ochib beradi. Ekologik muammolar badiiy adabiyotda nafaqat zamon muammosi, balki insoniyatning axloqiy tanlovi bilan bog'liq masala sifatida talqin qilinadi. Shu bois adabiyot ekologik ongni shakllantirishda muhim ma'naviy kuch bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. A'zam E. Tanxo qayiq. Toshkent: Sharq, 1996. 178 b.
2. Parfi R. She'riyat va tabiat. Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. 256 b.
3. Parfi R. Tabiat va ma'naviyat. Toshkent: Adabiyot va san'at, 2008. 248 b.
4. Po'latov T. G'oyibning ikkinchi safari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2001. 204 b.
5. Shevchenko T. Tabiat va inson: badiiy obrazlar tahlili. Toshkent: Fan, 2010. 232 b.
6. Carson R. Silent Spring. Boston: Houghton Mifflin, 1962. 368 p.
7. Carson R. The Sea Around Us. New York: Oxford University Press, 1951. 398 p.
8. Glotfelty C., Fromm H. The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. Athens: University of Georgia Press, 1996. 512 p.
9. Kingsolver B. Flight Behavior. New York: Harper, 2012. 416 p.
10. Kingsolver B. Prodigal Summer. New York: Harper Perennial, 2000. 448 p.
11. Martinez C. Ecocriticism in World Literature. London: Routledge, 2014. 276 p.
12. Nabhan S. The process approach to enhance students' writing skill in English classroom. Surabaya: PGRI Adi Buana University, 2015. 120 p.
13. Powers R. The Overstory. New York: W.W. Norton & Company, 2018. 512 p.
14. Thoreau H.D. Civil Disobedience and Environmental Writings. New York: Library of America, 2003. 480 p.
15. Thoreau H.D. Walden. Boston: Ticknor and Fields, 1854. 320 p.
16. Wordsworth W. Lyrical Ballads. London: T. N. Longman & O. Rees, 1798. 312 p.